MUALLIF ONGI TUSHUNCHASI VA UNING AVTOBIOGRAFIK ASARDA IFODALANISH SHAKLLARI

Zaripov Abduvahob Suyundikovich (Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi; qovunchi1989@gmail.com)

Ijodkor shaxsiyatining rivojlanishi fanning turli sohalaridagi tadqiqotchilarni doimo qiziqtirib kelgan. Adabiy ijodning ajralmas hodisasi sifatida muallif ongi ijodkor shaxsining shakllanishi va taraqqiyot jarayonini o‘rganish imkonini beradi. U muallifning dunyoqarashi, hissiy holati va ma’naviy izlanishlaridagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi ko‘zgu vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda muallif ongini tadqiq etish ijodning psixologik tabiatini tushunishda yangi yutuqlarga olib chiqadi.

Muallif ongi adabiy-badiiy asarning markaziy kategoriyasi sanaladi. U so‘z estetik belgisining mazmuniy asosini shakllantirib, adabiy-badiiy muloqot jarayonida tug‘iladigan ma’noning shakllanishida hal qiluvchi unsur vazifasini bajaradi. Shuningdek, muallifning ongi uning haqiqiy shaxsiyatini aniq aks ettirmaydi, balki turli badiiy vositalar yordamida matnda yaratilgan murakkab tuzilmani ifodalaydi.

Muallif ongi - bu shunchaki muallif g‘oyalari va qarashlari yig‘indisi emas, balki matnni yaratish jarayonida shakllanadigan va o‘quvchi tomonidan asarning ajralmas qismi sifatida qabul qilinadigan o‘zaro bog‘liq elementlarning murakkab tizimidir. Muallif ongini o‘rganish asarning ma’nosini chuqurroq anglash, muallif bilan muloqot o‘rnatish va adabiy ufqlarini kengaytirish imkonini beradi. Biroq, bunda muallif ongi adabiy asarning tarkibiy qismlaridan biri ekanligini va uni to‘liq tushunish uchun boshqa omillarni ham hisobga olish kerakligini yodda tutish muhimdir. Shu boisdan masalaga chuqurroq kirish uchun muallif ongi prizmasining tadrijiy shakllanish jarayoniga e’tiborimizni qaratsak.

XX asrning ikkinchi yarmida muallif muammosini o‘rganishga B.A.Uspenskiy

salmoqli hissa qo‘shdi. U muallif nuqtayi nazarini turli qarashlarning murakkab o‘zaro ta’siri sifatida ko‘rib chiqib, shunday ta’kidlaydi: “... badiiy matn tuzilishini turli nuqtayi nazarlarni, ya’ni hikoya (tavsif) amalga oshiriladigan muallif pozitsiyalarini ajratib ko‘rsatish va ular o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish orqali tavsiflash mumkin”[1]. V.V.Vinogradov, M.M.Baxtin va boshqa olimlarning ishlariga asoslanib, B.A.Uspenskiy matndagi nuqtayi nazarlarda namoyon bo‘ladigan to‘rtta darajani ajratib ko‘rsatadi: “g‘oyaviy reja”, “frazeologik reja”, “makon va zamon tavsifi rejasi” hamda “psixologik reja”. U ushbu darajalarning bir-biridan mustaqilligini ta’kidlab, ularning muallifning dunyoni yaxlit idrok etishini aks ettirishini qayd etadi. B.A.Uspenskiy nuqtayi nazarlarni “ifoda va mazmun (tasvir va tasvirlanayotgan narsa)” mavjud bo‘lgan semantika va san’at turlari bilan bog‘laydi[2]. Izohlaydigan bo‘lsak, B.A.Uspenskiy har bir badiiy asarda ifoda va mazmunning dialektik birligi mavjudligini ta’kidlab, nuqtayi nazar, semantika va san’atning turli ko‘rinishlari o‘rtasida chuqur aloqadorlikni o‘rnatadi deb fikr bildiradi. Shunday qilib, muallifning nuqtayi nazari nafaqat materialni taqdim etish usulini belgilaydi, balki asarning o‘ziga xos semantikasini shakllantiradi, unga betakror badiiy tasvir beradi.

Muallif va hikoyachi, muallif va personaj o‘rtasidagi chegaralar matnning o‘ziga xos ijodiy makonini yaratadi. Hikoyachi obrazi muallifga to‘liq mos kelmay, undan ma’lum darajada masofada turib, muhim vazifalarni bajaradi. Birinchidan, hikoyachi muallifning o‘ziga xos niqobiga aylanib, unga "mas’uliyat yukini zimmasidan soqit qilishga" ko‘maklashadi hamda asarning badiiy olamida mavjud bo‘lmagan muallifning irodasini aks ettiradi. Ikkinchidan, u kitobxonga nafaqat syujet vaziyatining mohiyatini va personajlar tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini yetkazadi, balki yashirin va noaniq ma’nolarni ochib berish orqali hikoyaning muayyan lahzasida qahramonlarning kayfiyati va his-tuyg‘ularini yanada chuqurroq emotsional idrok etishga ko‘maklashadi.

1 Успенский Б.А. Поэтика композиции. –М.: Искуство, 1970, С. 14.

2 Успенский Б.А. Поэтика композиции. –М.: Искуство, 1970, С. 10.

Uchinchidan, badiiy matnga hikoyachi obrazining kiritilishi o‘quvchi va muallif o‘rtasida bevosita muloqot ta’sirini yaratadi. Bu jarayonda muallif, hikoyachi va kitobxon ongi o‘ziga xos tarzda birlashadi. Hikoyachi voqealarni shunchaki so‘zlab beruvchi rolida qolmaydi, balki hikoya tafsilotlari va syujet mantig‘ini nozik tarzda tiklaydi. Ba’zan muallif, o‘quvchiga shunday tuyulishi mumkinki, muayyan badiiy maqsadlarni ko‘zlab, o‘zi bilan hikoyachi o‘rtasidagi masofani ataylab yo‘qotadi. Bunday hollarda muallif va hikoyachi obrazi bir-biriga yaqinlashadi, bu esa matnda muallifning hozirligini ta’kidlaydi. V.N.Toporov muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi badiiy munosabatlarning shakllarini, shuningdek, voqelik va illyuziyaning o‘zaro nisbati shakllarini tahlil qilib, shunday xulosaga keladi: “bu ikki shakl – “mualliflik” va “kitobxonlik”, “reallik” va “illyuziya” - o‘rtasida, hech bo‘lmaganda ma’lum vaziyatlarda, bo‘shliqlar yoki hatto ziddiyatlar mavjud”[3]. Muallif aynan shu ziddiyatlar asosida “badiiy” o‘yinni quradi va “faktik” va “uydirma”, real va illyuziya, haqiqiy va xayoliy unsurlarning o‘zigacha noma’lum bo‘lgan murakkab kombinatsiyalarini yaratadi[4]. Ushbu fikrladan xulosa qiladigan bo‘lsak, muallif ongli ravishda qarama-qarshiliklardan o‘z badiiy g‘oyasini amalga oshirish vositasi sifatida foydalanadi. U reallik va xayoliylikning murakkab kombinatsiyalarini yaratish orqali o‘quvchida muayyan his-tuyg‘ularni uyg‘otishga, reallikning tabiati va dunyoni bilishda san’atning o‘rni haqida o‘ylashga majbur qilishga intiladi.

Adabiyotshunos “muallif” tushunchasining bir necha ma’nolarini ajratib ko‘rsatadi. Birinchidan, “muallif” so‘zi yozuvchi, haqiqatda mavjud bo‘lgan shaxsni bildiradi. Biografik muallif olimlar tomonidan hayotiy materiallar manbai, syujet prototipining asosi sifatida qabul qilinadi.

3 Топоров В.Н. «Бедная Лиза» Карамзина. Опыт прочтения. С. 165.

4 Топоров В.Н. «Бедная Лиза» Карамзина. Опыт прочтения. С. 167.

Ikkinchidan, “muallif” so‘zi “butun asar ifodalanishi bo‘lgan voqelikka nisbatan ma’lum bir qarash” - degan ma’noni anglatadi5. Shunday qilib, muallifning e’tibori subyektiv darajaga qaratilgan bo‘lib, unda uning konsepsiyasi matnda aks etgan turli nuqtayi nazarlarning o‘zaro ta’siri orqali namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, “muallif” atamasi turli janrdagi asarlarda uchraydi, bu yerda u “hikoyachi” yoki “naql qiluvchi” ma’nosini anglatishi mumkin. B.O.Kormanning ta’kidlashicha, “mualliflik nuqtayi nazari hikoyachining nuqtayi nazaridan kengroqdir, chunki u nafaqat alohida nutq subyekti tomonidan (u muallifga qanchalik yaqin bo‘lmasin), balki umuman olganda asarning butun subyektiv tuzilishi orqali ifodalanadi”6. Mazkur fikrga qo‘shilgan holda, shuni qo‘shimcha qilamizki, mualliflik pozitsiyasi nafaqat qahramon yoki hikoyachi orqali ifodalangan subyektiv fikrlar yoki kechinmalarni, balki muallif ongini namoyon qiladigan asarning barcha tarkibiy va kompozitsion elementlarini ham qamrab oladi. Bu muallif konsepsiyasining umuman matn, shu jumladan uning shakli, uslubi va tuzilishi bilan qanday o‘zaro ta’sir qilishini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

N.D.Tamarchenko M.M.Baxtin nazariyasiga asoslanib, “muallif obrazi” va “ijodkor-muallif” tushunchalarini farqlaydi. U asardagi muallif obrazi nafaqat nutq va tasvir subyekti bo‘lgan personajlar bilan o‘zaro ta’sir qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki asarni yaratuvchi haqiqiy tarixiy shaxs bo‘lgan ijodkor-muallif bilan ham munosabatda bo‘lishini ta’kidlaydi7. Bu tafovut muallifning obrazi ko‘p qirrali va ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin bo‘lgan asarda muallif ongi qanday faoliyat ko‘rsatishini chuqurroq tushunishga imkon beradi, haqiqiy muallif-ijodkor esa bu badiiy tasvir ortida yashiringan bo‘lib, talqin qilish va o‘quvchi bilan o‘zaro ta’sir qilish uchun makon yaratadi.

5 Корман Б.О. Избранные труды: Теория литературы. С. 99.

6 Корман Б.О. Изучение текста художественного произведения. С. 43.

7 Тамарченко Н.Д. Теория литературы. Т. 1. С. 244.

N.S.Stepanova badiiy avtobiografik asarlarning muallif ongini ifodalash shakllari va subyektli tashkil etish muammolarini o‘rganib, muallif ishtirokining subyektli va subyektdan tashqari shakllari kabi ikki guruhga ajratib o‘rganadi. N.S.Stepanova muallif ongini ifodalashning subyektiv shakllari sifatida “konseptual muallif”, hikoyachi, lirik qahramonni belgilaydi, subyektdan tashqari shakllar sifatida esa - syujet-kompozitsion va makon-zamon xususiyatlari (xronotop), motivlar tizimi, peyzaj, hikoya qilishning hissiy ohangi (va foni), badiiy obrazlar tizimini belgilaydi[8]. Shunday qilib, N.S.Stepanova badiiy matnni tahlil qilishga kompleks yondashuvni taklif etadi. Bu yondashuv muallif ongining nafaqat aniq subyektlar (konseptual muallif, hikoyachi, lirik qahramon) orqali, balki turli xil badiiy vositalar va uslublar vositasida ham qanday ifodalanishini ko‘rish imkonini beradi.

N.T.Rimar va V.P.Skobelevning fikriga ko‘ra, yozuvchining shaxsi asardagi muallif obrazi bilan mos kelmaydi. Muallif ongi tugallanmaganlik, cheksizlik va bashorat qilib bo‘lmaslik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, muallif (shaxsdan ustun) ongi va boshqa qahramonlar (shaxsiy) ongi o‘rtasidagi chegaralar harakatchan va o‘zgaruvchan bo‘lib, aynan ular mohiyatan “borliqning turli shakllarining uchrashish nuqtalari” hisoblanadi[9]. Xulosa qiladigan bo‘lsak, ijodkor shaxsiyati va uning asardagi muallif obrazi o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlik yo‘qligini tan olish ijodkorning ruhiy-psixologik holatini o‘rganish zaruratini yanada ko‘rsatib beradi. Buni muallif ongini chuqurroq tadqiq etish orqali o‘rganishimiz mumkin. Chunki muallif ongi ijodkorning ruhiy holati aks ettirilgan dunyoqarashning o‘ziga xosligini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xususan, bu holatlar ijodkor ongida mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklarni, ichki ziddiyatlarni va intuitiv qarorlarni tushunishga imkon beradi.

8 Степанова Н.С. Концептосфера «путь жизни» в автобиографической прозе первой волны русской эмиграции: дис. … д-ра филол. наук. Москва, 2016. 396 с. с 283

9 Рымарь Н.Т., Скобелев В.П. Теория автора и проблема художественности. С. 119.

O‘tmish voqealarini eslash, bolalik, yoshlik davrini tahlil qilish orqali muallif o‘z hayotiga baho beradi. Masalan, Oybekning “Bolalik” qissasida bolalik xotiralari orqali muallifning shakllanish jarayoni ochib beriladi.

Ichki monolog va ruhiy tahlillar orqali qahramonning ichki dunyosi, iztiroblari va o‘y-kechinmalari orqali muallifning ongiy pozitsiyasi namoyon bo‘ladi. Asardagi mualliflik izohi va publitsistik ohanglarda esa ayrim o’rinlarda muallif voqealarga bevosita munosabat bildiradi, xulosa chiqaradi yoki ijtimoiy masalalarni sharhlaydi.

Muallif ongini ko’rsatishda badiiy umumlashtirish - shaxsiy hayot voqealari umumxalq yoki umuminsoniy mazmunga ko‘tariladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “O'tmishdan ertaklar” asarida shaxsiy xotiralar orqali butun bir davr muhiti tasvirlanadi.

“Badiiy obraz” tushunchasining “muallif ongi” tushunchasiga nisbatan ahamiyati turli asarlarda ta’kidlab o‘tilgan. Masalan, T.T.Davidova va V.A.Pronin shuni qayd etadilarki, “dastlabki muallif g‘oyasi, odatda, keyinchalik rivojlanishi lozim bo‘lgan g‘oya va kichik yaxlit obraz ko‘rinishida paydo bo‘ladi”10. Har qanday badiiy obrazning "rivojlanishi" matnning turli darajalarida muallif ongining mujassamlanishi, badiiy asarda muallifning ifodalanishi mantig‘ini ham hisobga oluvchi estetik qonuniyatlar majmui bilan belgilanadi. Shunday qilib, muallif ongining tabiati, uning matndagi ishtiroki darajasi hamda turli subyektlar, asosiy qahramon va kitobxon bilan o‘zaro munosabati masalasi dunyo adabiyotshunosligida faol tadqiq etilgan. Lekin mullif ongini o‘rganish orqali ijodkorning ruhiy-psixologik holati o‘rganilmagan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, muallif ongini o‘rganish ijodkor shaxsining psixologik va hissiy evolyutsiyasini tushunish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Bu jarayon nafaqat muallifning shaxsiy transformatsiyasini, balki uning jamiyat, madaniyat va zamon bilan o‘zaro ta’sirini ham aks ettiradi. Bu sohadagi kelgusi

10 Давыдова Т.Т., Пронин В.А. Теория литературы. М.: Логос, 2003. С.36.

tadqiqotlar ijodkor shaxsi va uning badiiy merosi o‘rtasidagi munosabatlarning yangi qirralarini ochib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Успенский Б.А. Поэтика композиции. –М.: Искуство, 1970, С. 14.
1. Топоров В.Н. «Бедная Лиза» Карамзина. Опыт прочтения. С. 167.
2. Корман Б.О. Избранные труды: Теория литературы. С. 99.
3. Корман Б.О. Изучение текста художественного произведения. С. 43.
4. Тамарченко Н.Д. Теория литературы. Т. 1. С. 244.
5. Степанова Н.С. Концептосфера «путь жизни» в автобиографической прозе первой волны русской эмиграции: дис. … д-ра филол. наук. Москва, 2016. 396 с. с 283
6. Рымарь Н.Т., Скобелев В.П. Теория автора и проблема художественности. С. 119.
7. Давыдова Т.Т., Пронин В.А. Теория литературы. М.: Логос, 2003. С.36.